



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№8**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 111 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
<b>Mavlanov Sobirjon Pardabayevich</b>	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish.....	20
<b>Sattarov Umirzoq</b>	
Современные банковские продукты.....	24
<b>Хужамуратов Аббос Мардонович</b>	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
<b>Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna</b>	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
<b>Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна</b>	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
<b>Kabulov Baxram Kuzibaevich</b>	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
<b>Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li</b>	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
<b>Baymirzaev Dilmurod Nematovich</b>	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030.....	66
<b>Исомов Б. С.</b>	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
<b>Rajabov Orzujon Mamasoliyevich</b>	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar.....	78
<b>Baykalonov Jalil G'aybulloyevich</b>	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	86
<b>Rajabov Sirojiddin Mansurovich</b>	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
<b>Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна</b>	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
<b>Мансурова Сайёра Бахтияровна</b>	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
<b>Djumayev Farrux Toshmuratovich</b>	



## HUDUD SANOATI TARKIBIY O'ZGARISHLARINI PROGNOZLASH USULI

### Djumayev Farrux Toshmuratovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Termiz davlat universiteti

ORCID: 0009-0003-6313-0355

E-mail: [farruxdjumayev36@gmail.com](mailto:farruxdjumayev36@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida sanoat sohasida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni iqtisodiy-statistik usullar orqali prognozlash masalasi ko'rib chiqiladi. Hududiy sanoat tarmoqlarining dinamikasi, ularning yalpi sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinib, regressiya tahlili va trend analizi asosida prognozlash modeli ishlab chiqiladi. Maqolada viloyatning mavjud ishlab chiqarish salohiyati hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari asosida ilmiy-amaliy xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat tarkibi, prognozlash, Surxondaryo viloyati, regressiya tahlili, trend analizi, iqtisodiy o'sish, tarmoqlar dinamikasi.

**Abstract:** This article examines the issue of forecasting structural changes in the industrial sector of Surkhondarya region using economic and statistical methods. The dynamics of regional industrial sectors, their share in total industrial production, and their impact on economic development are analyzed. A forecasting model is developed based on regression analysis and trend analysis. The article presents scientific and practical conclusions based on the region's existing production potential and future development directions.

**Key words:** industrial structure, forecasting, Surkhondarya region, regression analysis, trend analysis, economic growth, sectoral dynamics.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос прогнозирования структурных изменений в промышленной сфере Сурхандарьинской области с использованием экономико-статистических методов. Анализируется динамика отраслей региональной промышленности, их доля в общем объеме промышленного производства и влияние на экономическое развитие. На основе регрессионного анализа и трендового метода разрабатывается модель прогнозирования. В статье приведены научно-практические выводы, основанные на существующем производственном потенциале региона и перспективах развития.

**Ключевые слова:** структура промышленности, прогнозирование, Сурхандарьинская область, регрессионный анализ, трендовый анализ, экономический рост, динамика отраслей.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi hududlarida sanoatni modernizatsiya qilish, iqtisodiyotda diversifikatsiyani ta'minlash hamda mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Surxondaryo viloyati mamlakatning janubiy hududi sifatida o'zining tabiiy resurslari, ishchi kuchi va geoiqtisodiy joylashuvi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, viloyatda sanoat tarmoqlarining rivojlanishini prognozlash iqtisodiy rejalashtirish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.



Hozirgi davrda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini sezilarli darajada oshirishga erishilmoqda.

Bu yo'nalishdagi strategik hujjatlar, xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, shuningdek, Prezident qarorlari va farmonlari asosida respublika sanoatini hududlar bo'yicha rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Jumladan, 2022-yil 21-dekabrda PQ-447-sonli Prezident qarori ("Hududlarda sanoatni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida")ga muvofiq, viloyatlar kesimida sanoat tarmoqlari tarkibini chuqur tahlil qilish, mavjud sanoat salohiyatidan oqilona foydalanish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Surxondaryo viloyati o'zining boy tabiiy resurslari (ohaktosh, marmar, gips, neft va gaz), serquyosh iqlimi, unumdor yerlar fondi va nisbatan raqobatbardosh mehnat resurslariga ega bo'lganligi sababli sanoatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Ayni vaqtda viloyatda yoqilg'i–energetika, oziq–ovqat, yengil sanoat va qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyat yuritmoqda. Mazkur tarmoqlarning iqtisodiy samaradorligi va tarkibiy ulushi turlicha bo'lib, ularning rivojlanishini ilmiy asoslangan iqtisodiy bashoratlar yordamida rejalashtirish muhimdir.

Hududiy sanoat tarkibidagi o'zgarishlarni prognozlash nafaqat iqtisodiy rivojlanish rejalari uchun zamin yaratadi, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanish, mahalliyashtirish darajasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini mustahkamlash imkonini beradi. Ayniqsa, sanoat tarkibining hududiy kesimda prognoz qilinishi samarali iqtisodiy siyosat yuritish uchun zarur analitik asosni shakllantiradi. Shu maqsadda Surxondaryo viloyatining sanoat tarkibini o'rganish va prognozlash bo'yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilib, mavjud statistik ma'lumotlar asosida yaqin yillarga mo'ljallangan prognoz natijalari shakllantiriladi. Ushbu tahlillar hukumat qarorlarini qabul qilish, istiqbolli tarmoqlarni aniqlash va mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini yo'naltirishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat tarkibini o'rganish va prognozlash iqtisodiyotning hududiy rivojlanishini ilmiy asoslashda muhim metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Amaldagi tadqiqotlar har bir hududning sanoat salohiyati, ishlab chiqarish resurslari, mehnat bozori va logistika infratuzilmasi kabi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatmoqda. Ularni to'g'ri baholash va tahlil qilish – samarali iqtisodiy siyosat yuritishning asosi hisoblanadi.

Xalqaro tajriba:

Box–Jenkins metodologiyasi (1976–yil) – vaqt qatorlari asosida sanoat ishlab chiqarishni prognozlashda keng qo'llaniladigan ARIMA modellarini ishlab chiqqan. Ushbu yondashuv sanoat ishlab chiqarishidagi mavsumiy va trend komponentlarini aniqlash imkonini beradi.

M. Porterning "Competitive Advantage of Nations" (1990–yil) asarida klaster yondashuvi orqali hududiy ustunliklar asosida sanoat tarmoqlarining raqobatdoshligini tahlil qilish modeli taklif etilgan. Bu uslub viloyat miqyosida sanoat tarmoqlari o'rtasidagi sinergetik aloqalarni baholashga imkon beradi.

OECD tomonidan tayyorlangan "Regional Outlook" hisobotlarida sanoat va ishlab chiqarish sektorlarining hududiy taqsimoti, qo'llab–quvvatlash mexanizmlari hamda tarkibiy o'zgarishlarni prognozlash modellarining amaliy qo'llanishi keng yoritilgan.

Mahalliy tadqiqotlar:

A.A. Yo'ldoshevning "Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoat tarkibining o'rni" nomli monografiyasida sanoat tarmoqlari samaradorligini tahlil qilish, modellashtirish va ularni hududlar kesimida baholash usullari bayon etilgan.

B. Karimov tomonidan tayyorlangan "Makroiqtisodiy bashoratlar: metodlar va amaliyot" asarida regressiya, trend va ssenariy tahlil metodlari orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash usullari bayon etilgan.

M.M. Rasulovning "Iqtisodiy prognozlash va modellashtirish asoslari" o'quv qo'llanmasida Cobb–Douglas funksiyalari, Leontief modellaridan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Rasmiy statistik manbalar:

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – Surxondaryo viloyatining sanoat ko'rsatkichlari (yalpi sanoat mahsuloti, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, ishchi kuchi va boshqalar).

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi – Davlat dasturlari, Prezident qarorlari va farmonlari (masalan, PQ-447, PQ-60<sup>2</sup>, PF-60<sup>3</sup>, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi) doirasidagi sanoatni rivojlantirishga oid statistik–tahliliy ma'lumotlar.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.12.2022 yildagi PQ-447-son <https://lex.uz/uz/docs/-6324754>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.02.2025 yildagi PQ-60-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-7386867>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



Umumlashtirilgan holda aytganda, sanoat tarkibini prognozlashda statistik yondashuvlar bilan birga tizimli va kompleks baholash yondashuvlari qo'llanishi lozim. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy–uslubiy asoslar bilan bir qatorda xalqaro modellashtirish tajribalarini uyg'unlashtirish orqali Surxondaryo viloyati uchun aniq, amaliy prognozlar tuzish imkoniyati mavjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sanoat tarmoqlari o'rtasidagi nisbatlar va ularning rivojlanish dinamikasi asosida tarkibiy o'zgarishlarni prognozlash uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi:

Trend tahlili – 2010–2023–yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishiga oid statistik ma'lumotlar asosida o'sish sur'atlari aniqlanadi.

Ko'p omilli regressiya tahlili – sanoat tarmoqlari (yoqilg'i–energetika, oziq–ovqat, qurilish materiallari, yengil sanoat va boshqalar) bo'yicha yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar aniqlanadi.

Ssenariy asosidagi prognozlash – ehtimoliy rivojlanish ssenariylari (optimistik, realistik va ehtiyotkor/pessimist) asosida 2025–2030–yillar uchun prognozlar tuziladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Viloyat sanoatida qurilish materiallari va oziq–ovqat sanoati eng yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda.

Regressiya modeliga ko'ra, sanoat ishlab chiqarish hajmiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilardan iborat: infratuzilma investitsiyalari ( $R^2 = 0.87$ ), energiya ta'minoti darajasi va ishchi kuchining malakasi.

Trend tahlili natijalariga ko'ra, 2030–yilga borib Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmining 2,1 barobar oshishi prognoz qilinmoqda.

Tadqiqot davomida 2010–2023–yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatining sanoat rivojlanish holati tahlil qilinib, uning tarkibiy o'zgarishlari, asosiy drayverlari hamda kelgusi yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari aniqlab chiqildi.

Quyida olingan natijalar tahlil qilinadi:

Sanoat ishlab chiqarish hajmining dinamikasi. Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarish hajmi so'nggi 13 yil davomida barqaror o'sib bormoqda (1–jadval).

1-jadval. Sanoat ishlab chiqarish hajmining dinamikasi

Yil	Yalpi sanoat mahsuloti (mlrd so'm)	Yillik o'sish sur'ati (%)
2010	1 850	–
2015	3 620	+12,8
2020	6 950	+11,2
2023	9 200	+9,6

Ushbu sanoat o'sishi, asosan, quyidagi tarmoqlarning yuqori faolligi bilan izohlanadi:

Qurilish materiallari ishlab chiqarish – 2023–yilda sanoat ishlab chiqarishning 26,4 % ini tashkil etgan.

Oziq–ovqat sanoati – 2023–yilda 22,7 % ulush bilan ikkinchi o'rinni egallagan.

Yengil sanoat – umumiy sanoat ishlab chiqarish tarkibida 13,5 % lik ulush bilan muhim o'rin tutgan.

Energetika sohasi – 12,9 % ulush bilan sanoat barqarorligida muhim ahamiyat kasb etgan.

Yalpi sanoat ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida ko'p omilli regressiya modeli tuzildi. Ushbu model sanoat salohiyatini chuqur tahlil qilish va kelgusi rivojlanishni prognozlash imkonini beradi.

Model tenglamasi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

Bu yerda:

Y – sanoat ishlab chiqarish hajmi

$X_1$  – investitsiyalar hajmi

$X_2$  – elektr energiyasi iste'moli (ming kVt/soat)

$X_3$  – ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar soni

Model asosida olingan natijalar 2–jadvalda keltirilgan.



## 2-jadval

Ko'rsatkich	Baholangan koeffitsient	P-qiyamat	Izoh
const	654,2	<0,001	Statik komponenta
X <sub>1</sub>	1,92	0,0007	Investitsiyalarning sezilarli ta'siri mavjud
X <sub>2</sub>	0,47	0,0021	Energiya iste'molining muhim ta'siri mavjud
X <sub>3</sub>	0,35	0,011	Bandlik darajasi ham sezilarli ta'sirga ega

Determinatsiya koeffitsienti ( $R^2$ ) 0,87 ga teng bo'lib, tuzilgan model sanoat ishlab chiqarish hajmini 87 % aniqlik bilan izohlash imkonini beradi. Bu esa modelning yuqori darajadagi ishonchliligini ko'rsatadi.

Trend tahlili asosida 2025–2030–yillar uchun sanoat ishlab chiqarish hajmining prognozi uch xil ssenariy bo'yicha ishlab chiqildi:

Optimistik,

Realistik,

Ehtiyotkor (pessimist).

Ushbu prognoz natijalari 3–jadvalda keltirilgan.

## 3-jadval. 2025–2030 yillar uchun sanoat ishlab chiqarish hajmi

Yil	Optimistik ssenariy	Realistik ssenariy	Ehtiyotkor ssenariy
2025–yil	10 200	9 850	9 400
2027–yil	12 600	11 700	10 900
2030–yil	16 300	14 900	12 500

Ushbu prognozlar asosida quyidagi strukturaviy o'zgarishlar kuzatilishi kutilmoqda:

Qurilish materiallari sanoati ulushi 2030–yilga borib 30 % ga yetishi prognoz qilinmoqda.

Yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatida modernizatsiya jarayonlari natijasida mahsulotlar tarkibidagi qo'shilgan qiymat sezilarli darajada oshadi.

Energetika va gaz ta'minoti tarmoqlari ulushi 2030–yilda 10 % dan ortiq bo'lishi kutilmoqda.

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan "Termiz tuman", "Denov" va "Sherobod" erkin iqtisodiy zonalar sanoat o'sishining muhim drayverlari sifatida xizmat qilmoqda. 2023–yilda mazkur zonalarda 75 dan ortiq korxonalar faoliyat olib borgan bo'lib, ular viloyat sanoat mahsulotining 19 % ini ishlab chiqargan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyati sanoat tarkibida muhim ichki o'zgarishlar sodir bo'layotganini ko'rsatmoqda. Amalga oshirilgan regressiya va trend modellari viloyat sanoatini strategik boshqarishda aniq va ishonchli prognozlar ishlab chiqish imkonini bermoqda. Ushbu prognozlar investitsiya oqimlarini maqsadli yo'naltirish, tarmoqlar o'rtasida iqtisodiy muvozanatni ta'minlash hamda yuqori samaradorlikka erishish yo'lida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatining sanoat tarmoqlari tarkibidagi o'zgarish dinamikasi chuqur o'rganildi, asosiy rivojlanish omillari tahlil qilindi va iqtisodiy-statistik usullar asosida 2030–yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

2010–2023–yillar oralig'ida viloyat sanoat mahsuloti yillik o'rtacha 10–12 % ga o'sdi. Bu jarayon, asosan, qurilish materiallari, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari hisobiga ta'minlandi. Tahlillar sanoat tarmoqlaridagi tarkibiy o'zgarishlar – xususan, qurilish materiallari va yengil sanoat ulushining oshib borayotgani – viloyat iqtisodiyotining yangi yo'nalishlarga moslashayotganini hamda mahalliy resurslardan foydalanish darajasining oshganligini ko'rsatmoqda. Regressiya tahlili esa sanoat ishlab chiqarish hajmiga eng katta ta'sir investitsiyalar hajmi, energiya ta'minoti sifatini va ishchi kuchi malakasi tomonidan belgilanayotganini tasdiqlaydi. Qurilgan model yuqori darajada izohlovchi kuchga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,87$  ni tashkil etdi.

Prognoz natijalariga ko'ra, agar mavjud tendensiyalar saqlanib qolsa, 2030–yilga borib sanoat ishlab chiqarish hajmi realistlik ssenariy bo'yicha 14,9 trln so'mga yetishi kutilmoqda. Bu esa 2023–yilga nisbatan qariyb 1,6 barobar o'sishni anglatadi. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar viloyat sanoatining asosiy drayver hududlariga aylanoqda. Jumladan, 2023–yilda mazkur zonalarda umumiy sanoat mahsulotining qariyb 19 % ishlab chiqarilgan.



Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, hududiy sanoatni diversifikatsiyalash bo'yicha qurilish materiallari sanoatidagi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish, xususan, sement, gips, marmar va ohaktosh asosidagi mahsulotlarni chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan loyihalarni kengaytirish lozim. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatida agroklastlar asosida kooperatsiya tizimini rivojlantirish, konserva, quritilgan meva va sharbatlar kabi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish zarur.

Ikkinchidan, investitsiya va infratuzilma siyosatini takomillashtirish maqsadida investitsiyalarni sektorlar kesimida uzviy rejalashtirish, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, elektr energiyasi, gaz va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish kerak.

Uchinchidan, sanoatni ilmiy asosda rejalashtirish bo'yicha regressiya va trend modellariga asoslangan prognozlash tizimlarini viloyat miqyosida joriy etish, tarmoq kesimidagi o'sish prognozlari asosida resurs taqsimotini optimallashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalariga asoslangan raqamli prognozlash modellarini tatbiq etish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, ishchi kuchi va innovatsion salohiyatni oshirish maqsadida sanoat tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan grant tizimlarini kengaytirish hamda startaplar va texnoparklar faoliyatini rag'batlantirish lozim.

Beshinchidan, monitoring va baholash tizimini shakllantirish orqali har yili sanoat tarmoqlari bo'yicha tarkibiy tahlillarni rasmiy ravishda e'lon qilish, ularni raqamli platformalarda ochiq taqdim etish va hududiy rivojlanish dasturlari ijrosini sanoat tarmoqlari kesimida tizimli monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev, A.A. (2021). Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoat tarkibining o'rni. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Karimov, B.A. (2020). Makroiqtisodiy bashoratlar: metodlar va amaliyot. Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti nashriyoti.
3. Rasulov, M.M. (2019). Iqtisodiy prognozlash va modellashtirish asoslari. Toshkent: IQTISOD nashriyoti.
4. Box, G.E.P., & Jenkins, G.M. (1976). Time Series Analysis: Forecasting and Control. San Francisco: Holden-Day.
5. Gujarati, D.N. (2003). Basic Econometrics (4th ed.). New York: McGraw-Hill.
6. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
7. OECD. (2022). OECD Regional Outlook 2022: Building Resilient Regions. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264307072-en>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022–12–21). PQ–447–son qaror: Hududlarda sanoatni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora–tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). O'zbekiston – 2030 strategiyasi. Rasmiy nashr. <https://strategy.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2010–2023). Surxondaryo viloyati bo'yicha sanoat ko'rsatkichlari. <https://www.stat.uz>
11. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2023). Hududiy sanoat tahlili va istiqbollari: Surxondaryo viloyati misolida. <https://www.cer.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). Surxondaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati to'g'risida axborot. <https://www.mift.uz>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 8

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---